

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.QX.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ANSATBAYEV PARAXAT AZATBAYEVICH

**YANGI EKOLOGIK SHAROITDA ZANEN ZOTLI ECHKILARINING
MOSLASHUV XOSSALARI VA MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавние автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Ansadbayev Paraxat Azadbayevich

Yangi ekologik sharoitda zaanen zotli echkilarining moslashuv xossalari va mahsuldorlik xususiyatlari 3

Ансатбаев Парахат Азатбаевич

Адаптивные свойства и продуктивные особенности зааненской породы коз в новых экологических условиях..... 19

Ansadbayev Paraxat Azadbayevich

Adaptive features and productive particularities of goats of zaanen breed in new ecological conditions 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published work 41

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.QX.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ANSATBAYEV PARAXAT AZATBAYEVICH

**YANGI EKOLOGIK SHAROITDA ZANEN ZOTLI ECHKILARINING
MOSLASHUV XOSSALARI VA MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI**

06.02.03 - Xususiyy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Qx769 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi www.uzkarakul.uz va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ajiniyazov Baxitbay Kenesbayevich

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Turganbayev Ruzimbay Urazbayevich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Xuseinova Maysara Abduvafoyevna

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qorako'lhilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01. raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140154, Samarqand, M.Ulug'bek ko'chasi, 47 uy. Qorako'lhilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, majlislar zali 2-qavat, tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Qorako'lhilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (235-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47 uy, institut ma'muriy binosi, 1-qavat Tel.: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

E.S.Shaptakov

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
q-x.f.d. (DSc), professor

Z.S.Klichev

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
q-x.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

D.Xolmirzaev

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q-x.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda echkilarning sut, jun, tivit, go'sht va boshqa mahsuldorlik yo'nalishlariga ega bo'lgan 250 dan ortiq zotlari mavjud. Echkichilikning o'ziga xos xususiyati, boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish qiyin bo'lgan cho'l, yarim cho'llar, tog' va boshqa ekologik noqulay hududlarda urchitish mumkin. Bunday o'ta og'ir tabiiy va iqlim hududlarida bir milliarddan ortiq aholi yashaydi. Dunyoda 2018-yil hisobi bo'yicha echkilar bosh soni 1045,9 mln boshni tashkil etib, dunyoning 197 ta davlatida urchitilmoqda. Dunyodagi echkilar bosh soni bir tekis taqsimlanmagan bo'lib, 52,5 foizi Osiyo qit'asiga to'g'ri kelmoqda¹. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida echkichilikdan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarning taqchilligi kuzatilganligi sababli, so'nggi yillarda echkichilik tarmog'ining sut va go'sht mahsuldorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

MDH mamlakatlari orasida ham echkilarning bosh soni bo'yicha yuqori o'rinlarda O'zbekiston (3,6 mln), Qozog'iston (2,3 mln), Turkmaniston (2,3 mln), Rossiya (1,96 mln) davlatlariga to'g'ri kelmoqda². Sanoat miqyosida echki suti so'g'ib olishga ixtisoslashgan turli zotlardan foydalaniladi. Voyaga etgan va sog'lom bo'lgan mahalliy urg'ochi echkilarning tirik vazni o'rtacha 38-45 kg ni tashkil etib, 6-8 oylik laktatsiya davri davomida 250-400 kg sut beradi. Rossiyada mursiano-granadina, zaanen, alp, nubiy echki zotlari urchitiladi. Bugungi kunda echkilarning sut mahsuldorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizga so'nggi yillarda turli mahsuldorlik yo'nalishidagi zaanen, togenburg, alp, angor, gulobi, anglonubi, mursiano-granadina, bintau, bur, kamori zotlari keltirilib ularni iqlimlashtirish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Respublikamizda aholining oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...32-maqсад: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan³.

Zaanen zotli echkilar sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan zot hisoblanadi. Yangi ekologik sharoitda mazkur echkilarning biologik va konstitutsional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'sish va rivojlanish, sut mahsuldorligi, sutning kimyoviy, fizik hamda organoleptik ko'rsatkichlari, turli yosh davrlari bo'yicha klinik va gematologik ko'rsatkichlari, serpushtligi ko'rsatkichlari yetarli darajada o'rganilmagan. Qoraqalpog'istonning keskin-kontinental iqlim sharoitida zaanen zotli echkilarning konstitutsional xususiyatlariga bog'liq holda o'sish va rivojlanish hamda mahsuldorligini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

¹ Ерохин А.И., Карасев Е.А., Ерохин С.А. «Динамика поголовья коз и производства козьего молока и мяса в мире и в России». Ж: Овцы, козы, шерстяное дело», № 4, 2020. –С. 22-25.

² <https://bigenc.ru/c/kozovodstvo-03ee1e>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi»da PF-60-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydagi 280-son “Chorvachilik tarmog‘iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Echkilarning sut mahsuldorligini xorij olimlaridan E.Dudouet (1982), H.Atherton (1992), J.Kapture (2002), J.Bowen (2007), F.Heinlein, R.Caccese (2005), rus olimlaridan S.V.Simonenko, I.V.Xovanova (2010), L.P.Moskalenko, O.V.Filinskaya (2012), V.V.Bryunchugin (2011), (2012), A.S.Shuvarikov, E.A.Yurova, V.A.Svetkova, O.N.Pastux (2015), E.M.Zueva, N.I.Vladimirov (2017); klinik va gematologik ko‘rsatkichlari G.Peter (2002), L.Emily, Nick van den Berg (2021); A.Febretrisiana, A.Anwar, A.Alwiyah (2022); Echkilarning mahsuldorligiga turli omillarning ta‘sirini H.Hoste (2001), J.Grubber (2009) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekistonda echkichilik, Z.Rajamurodov (1980), mahalliy echkilarni har xil saqlash sharoitida mahsuldorlik xususiyatlariga ta‘sirini A.Toreshova (2019), echki zotlarini o‘zaro chatishtirishdan olingan avlodlarning biologik mahsuldorligiga ta‘sirini M.Xuseinova (2021) tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ammo tadqiqot ob‘yektini bo‘lgan chetdan keltirilgan zaanen zotli echkilarning mahsuldorligi va ayrim biologik xususiyatlari Qoraqalpog‘iston sharoitida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №18 “Yangi ekologik sharoitda zaanen zotli echkilarning moslashuv xossalari va mahsuldorlik xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan (2019-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog‘iston hududiga chetdan keltirilgan sut yo‘nalishidagi zaanen zotli echkilarning moslashuvchanlik xususiyatlari hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:
echkilarning eksteryer ko‘rsatkichlarining konstitutsional tipga bog‘liqligini aniqlash;

turli konstitutsional tipdagi echkilarning turli yosh davrlari bo‘yicha tirik vazn dinamikasini aniqlash;

echkilarning konstitutsional tipiga bog'liq bo'lgan o'sish (mutlaq, kunlik va nisbiy) ko'rsatkichlari hamda tana tuzilish indekslarini hisoblab chiqish;

tajribadagi echkilarning ayrim klinik va gematologik ko'rsatkichlarning turli yosh davrlari bo'yicha dinamikasini aniqlash;

birinchi tug'im zaanen zotli echkilarning serpushtligi va laktatsiya davridagi sut mahsuldorligini hisobga olish;

sutning kimyoviy va fizik xususiyatlari laktatsiya davri bo'yicha o'zgarish dinamikasini aniqlash;

tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va amaliyotga tavsiya ishlab chiqarish.

Tadqiqotning ob'yekti bo'lib, Qoraqalpog'iston hududi sharoitida chet eldan import qilingan sut yo'nalishidagi urg'ochi jinsli zaanen zotli echkilar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, zaanen zotli urg'ochi echkilarning tirik vazni, o'sish ko'rsatkichlari (mutlaq, kunlik, nisbiy), tashqi tana tuzilishi va indekslari, qonning morfologik tarkibi, birinchi tug'imdagi serpushtligi, laktatsiya davridagi sut mahsuldorligi, sutning kimyoviy va fizik ko'rsatkichlari, yelinning morfologik xususiyatlari, rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda, P.I.Viktorovning "O'sish, rivojlanish va mahsuldorlikni hisobga olish", BCHITI ning "Echkilar serpushtligini aniqlash", G.G.Peterning "Hayvonlarning klinik ko'rsatkichlari", D.R.Amirov, F.B.Tamimdarov, A.R.Shageyevaning o'quv qo'llanmasiga ko'ra "Hayvonlarning klinik gematologiyasi", GOST 32259-2013 bo'yicha "Tabiiy echki suti va texnik shartlar", E.K.Merkuryevaning "O'rtacha arifmetik qiymat (X), va uning xatosi (S_x), variatsiyalanish koeffitsienti (C_v), guruhlararo farqning ishonchlilik (P) darajasini aniqlash» kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog'iston hududida chetdan keltirilgan sut yo'nalishidagi zaanen zotli echkilarning yosh davrlari bo'yicha konstitutsional tipga bog'liq bo'lgan eksteryer ko'rsatkichlari, tashqi tana tuzilish indekslari o'zaro farqlanishi aniqlangan;

Qoraqalpog'iston hududida chetdan keltirilgan sut yo'nalishidagi zaanen zotli mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilarning biologik hususiyatlariga bog'liq holda zich va nozik tipdagi echkilarga nisbatan 12 oylikdagi tirik vazni 1,5 va 2,7 kg ga yuqori bo'lishi aniqlangan;

chetdan keltirilgan sut yo'nalishidagi zaanen zotli echkilar Qoraqalpog'iston hududiga yaxshi moslashganligi hisobiga ularning klinik va gematologik ko'rsatkichlari fiziologik me'yor darajasida bo'lganligi aniqlangan;

zaanen zotli echkilarning yangi ekologik hududga yaxshi moslashganligi sababli birinchi tug'im davrida konstitutsional tiplari kesimida sut mahsuldorligi 602,7-637,8 kgga yetganligi hamda uning tarkibidagi yog' 3,80-3,93 foizni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chetdan keltirilgan sut yo'nalishidagi zaanen zotli echkilarning yangi ekologik sharoitida ayrim eksteryer ko'rsatkichlariga qanday ta'sir etganligi taqqoslangan;

sut yoʻnalishidagi zaanen zotli echkilar tirik vazn dinamikasi, oʻsish koeffitsientlari va mahsuldorlik koʻrsatkichlariga konstitutsional tipning taʼsiri aniqlangan;

yangi ekologik sharoitda zaanen zotli echkilarning turli yosh va konstitutsional tip boʻyicha moslashuvchanligi, klinik va gematologik koʻrsatkichlariga taʼsiri aniqlangan;

turli konstitutsional tipdagi echkilarning laktatsiya davri boʻyicha sut mahsuldorligi dinamikasi, uning tarkibi, organoleptik bahosi va tovarlik xususiyatlari aniqlanib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, uning natijalari va bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan birlamchi maʼlumotlarga biometrik ishlov berilganligi, olib borilgan tajriba va laboratoriya ishlariga Qoraqalpogʻiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi va Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti aprobatatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baho berilganligi, olingan ilmiy-tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinganligi dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalari nufuzli ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zaanen zotli echkilarning yangi ekologik hududdagi konstitutsional tip boʻyicha oʻsish va rivojlanishi, eksteryer koʻrsatkichlarining yosh davrlari dinamikasi, sut mahsuldorligi, uning kimyoviy tarkibi, organoleptik va fizik xususiyatlari, ayrim klinik va gematologik koʻrsatkichlarni aniqlash asosida ularni urchitish va mahsuldorligini oshirish ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa turli konstitutsional tip boʻyicha echkilarning oʻsish va rivojlanishini jadallashtirish, ularning tirik vaznini va sut mahsuldorligini oshirish, mahsulot birligiga togʻri keladigan ozuqani nisbatini kamaytirish va echkichilik tarmogʻining iqtisodiy samaradorligini taʼminlanishida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi ekologik sharoitda zaanen zotli echkilarining moslashuv xossalari va mahsuldorlik xususiyatlari yoʻnalishida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

zaanen zotli echkilarning konstitutsional tipi boʻyicha ajratib mahsuldorlik potentsalini oshirish usuli Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qoraoʻzak tumani “Panaev farms” fermer xoʻjaligida joriy qilingan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasining 2023-yil 20-iyuldagi 33/01-09-406 son maʼlumotnomasi). Natijada bir bosh echkidan laktatsiya davomida olingan sof foyda mustahkam tipda 1616,3 ming, zich tipda 1825,5 ming nozik tipda 1600,9 ming soʻmni, rentabellik darajasi esa 53-62 foizni tashkil qilgan.

zaanen zotli echkilarning konstitutsional tipi boʻyicha ajratib mahsuldorlik potentsalini oshirish usuli Qoraqalpogʻiston respublikasi Beruniy tumaniga qarashli “Baxovaddin-Ilxom” fermer xoʻjaligida joriy qilingan (Qoraqalpogʻiston

Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 20-iyuldagi 33/01-09-406 son ma‘lumotnomasi). Natijada bir bosh echkidan laktatsiya davomida olingan sof foyda mustahkam tipda 1472,0 ming, zich tipda 1592,0 ming nozik tipda 1361,0 ming so‘mni, rentabellik darajasi esa 45-54 foizni tashkil qilgan.

zaanen zotli echkilarning konstitutsional tipi bo‘yicha ajratib mahsuldorlik potentsalini oshirish usuli Qoraqalpog‘iston respublikasi Kegeyli tumani “Guldana-Zarina” fermer xo‘jaligida joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 20-iyuldagi 33/01-09-406 son ma‘lumotnomasi).

Natijada bir bosh echkidan laktatsiya davomida olingan sof foyda mustahkam tipda 1560,0 ming, zich tipda 1689,0 ming nozik tipda 1482,0 ming so‘mni, rentabellik darajasi esa 49-57 foizni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qorao‘zak tumani “Panaev farms” fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish yig‘ilishlarida (2019-2021 yy), Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti aprobatsiya komissiyasida (2019-2021 yy), Zoonijeneriya va veterinariya kafedrasining hisobot yig‘ilishlarida (2019-2021 yy), shuningdek 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida 4 ta, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda maqolalar chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xususiy tadqiqot natijalari, xulosalar, ishlab chiqarishga takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida talqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda ob‘ekt va predmeti, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga, ilmiy muassasaning tematik rejasiga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha yangi zamonaviy xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, internet ma‘lumotlari, dunyodagi yetakchi olimlar ilmiy ishlarining natijalari o‘rganilib, echkilarning zoologik klassifikatsiyasi va o‘ziga xos biologik xususiyatlari, echkilarining sut mahsuldorligining eksteryer ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi, echkilarning sut mahsuldorligi va shifobaxsh xususiyatlari, sut yo‘nalishidagi

echkichilik tarmog‘ining holati haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan, ma’lumotlar umumlashtirilib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot manbai va uslubiyati**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan hududining geografik o‘rni va iqlim sharoiti, tadqiqot manzili, sxemasi, tadqiqotda qo‘llanilgan usul va uslublari bayon etilgan.

Tadqiqotlar ishlarining tajriba qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qora‘zak tumanida joylashgan “Panaev farms” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligida 2019-2021 yillar davomida bajarilgan. Tadqiqotlar davomida tajribadagi zaanen zotli echkilarning konstitutsiyasi, tirik vazni, o‘shish ko‘rsatkichlari, eksteryeri, tana tuzilish indekslari, klinik va gematologik ko‘rsatkichlari, echkilarni oziqlantirish va saqlash, serpushtligi, sut mahsuldorligi, sutining kimyoviy tarkibi, yelin xususiyatlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashda foydalanilgan usul va uslublar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Echkilarning o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan uchinchi bobida turli yosh va konstitutsiya tipidagi zaanen zotli echkilarning eksteryeri, tana tuzilish indekslari, tirik vazni va o‘shish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan.

Tadqiqotlar davomida turli konstitutsiya va yoshdagi zaanen zotli echkilarning tirik vazn ko‘rsatkichlari o‘rganilgan (1-jadval).

1-jadval

Echkilarning tirik vazn dinamikasi, kg (n=10)

Yoshi, oy	Konstitutsiya tipi					
	Mustahkam		Zich		Nozik	
	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$
8	27,4±0,44**	5,04	26,3±0,44	5,29	25,5±0,43	5,38
12	35,1±0,54**	4,87	33,6±0,52	4,93	32,4±0,53	5,12
18	40,4±0,54**	4,68	39,3±0,51*	4,13	37,6±0,57	4,83
24	45,6±0,61**	4,21	44,0±0,79	5,64	42,5±0,73	5,41

Izoh: *P<0,05; **P<0,01

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilar o‘z tengqurlaridan tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha ustunlik qilishdi. Xususan, sakkiz oylik yoshida zich konstitutsiya tipidagi echkilardan 1,1 kg (P>0,05), nozik konstitutsiya tipidagi echkilardan esa 1,9 kg (P<0,01) ga ustunlik qilishdi. Bir yosharlik davrida mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilarning o‘rtacha tirik vazni 35,1±0,54 kg ni tashkil etib, o‘z tengqurlaridan mos holda 1,5 kg (P>0,05) va 2,7 kg (P<0,01) ga yuqori bo‘lgan. 18 oylik yoshda mustahkam va zich konstitutsiya tipidagi echkilar nozik konstitutsiya tipidagi tengqurlaridan mos ravishda 2,8 kg (P<0,01) ga va 1,7 kg (P<0,05) ga ustunlik qilishi kuzatildi. Ushbu tendensiya echkilarning 24 oylik yoshida ham kuzatilib, yuqori tirik vazn ko‘rsatkichi (45,6 kg) mustahkam tipda, quyi tirik vazn ko‘rsatkichi esa (42,5 kg) nozik tipda kuzatildi.

Dissertatsiyaning “**Echkilarning ayrim klinik va gematologik ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida echkilarning klinik va gematologik ko‘rsatkichlari hamda uloqlarning gematologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Echkilarning yangi iqlim sharoitida urchitish ularning mahsuldorligidan ko'ra dastlab klinik ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Shuning uchun ham chetdan keltirilgan zaanen zotli echkilarning klinik ko'rsatkichlari yangi sharoitda fiziologik me'yorga nisbatan qanday o'zgarishini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Echkilarning klinik ko'rsatkichlari

Konstitutsiya tipi	Ko'rsatkichlar	Yosh davrlari			
		8 oylik	12 oylik	18 oylik	24 oylik
Mustahkam	Rektal harorat, °C	39,51±0,08	39,34±0,07	39,18±0,06	38,74±0,08
	Yurak pulsi, marta/min	81,6±1,60	76,2±1,28	73,2±1,50	75,6±1,60
	Nafas olishi, marta/min	22,9±0,38	22,4±0,31	22,2±0,29	22,6±0,27
Nozik	Rektal harorat, °C	39,33±0,08	39,28±0,08	39,06±0,06	38,67±0,06
	Yurak pulsi, marta/min	87,6±1,60	80,4±1,33	77,4±1,40	78,6±1,40
	Nafas olishi, marta/min	24,4±0,34	23,9±0,28	22,8±0,36	22,9±0,31
Zich	Rektal harorat, °C	39,42±0,09	39,25±0,07	39,11±0,07	38,94±0,07
	Yurak pulsi, marta/min	84,6±1,40	78,6±1,40	76,8±1,50	79,2±1,50
	Nafas olishi, marta/min	23,7±0,30	23,3±0,33	22,7±0,33	23,1±0,23

Echkilarning klinik ko'rsatkichlari yosh davrlari va konstitutsiya tipiga bog'liq holda bir-biridan ma'lum darajada farqlandi. Xususan, 8 oylik yoshda echkilarning rektal harorati mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilarda yuqori bo'lib, nozik va zich konstitutsiya tipidagi echkilardan 0,18 va 0,09 °C ($P>0,05$) ustunlik qildi. Yurak qisqarishi nisbatan nozik konstitutsiya tipidagi echkilarda yuqori bo'lib, zich konstitutsiya tipidagi echkilardan yurak qisqarish soni 3,0 taga ($P>0,05$) yoki 3,68%, mustahkam konstitutsiya tipidan esa soni 6,0 taga ($P<0,05$) yoki 7,35% ga yuqori bo'ldi. Nafas olish (respiratsiya) chastotasi bo'yicha ham ustunlik nozik konstitutsiya tipidagi echkilarda kuzatilib, mos holda 0,7 ($P>0,05$) chastota yoki 2,95% va 1,5 ($P<0,05$) chastota yoki 6,55% ga ortiq bo'ldi.

Zaanen zotli echkilarning 12 va 18 oylik yoshida rektal harorati, yurak urishi va nafas olish chastotalari bo'yicha olingan ma'lumotlarda yuqoridagi tendensiya kuzatildi.

Tajribadagi zaanen zotli echkilardan 24 oylik yoshdagi echkilarda rektal harorat konstitutsiya tipi bo'yicha mos ketma-ketlikda; 38,74; 38,67; 38,94 °C ni tashkil etdi. Bir yarim yasharlik davriga nisbatan tana haroratini mos holda; 0,44; 0,39; 0,17 °C ga pastlaganligi kuzatildi. Yurak pulsi va respiratsiya chastotasi bo'yicha esa ko'rsatkichlarning mos ravishda 2,4; 1,2; 2,4 ($P>0,05$) pulsga va 0,4; 0,1; 0,4 ($P>0,05$) chastotaga ortganligi kuzatildi.

Organizmida hayotiy jarayonlarning me'yorda kechishini xarakterlovchi xususiyatlaridan biri qonning fiziologik hamda bioximik ko'rsatkichlari sanaladi. Agar organizmdagi qon ko'rsatkichlarini bilsak, yangi ekologik sharoitda hayvonlarning fiziologik holatida me'yorga nisbatan qanday o'zgarish ro'y berayotgani to'g'risida fikr yurish mumkin.

Echkilarda yoshi kattalashishi bilan eritrotsitlarning qondagi miqdori ham oshib borgan. Xususan, mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilarning 8 oylik yoshida bu ko'rsatkich o'rtacha $11,4 \times 10^{12}/l$ ni tashkil etgan bo'lsa, 12; 18 va 24

oylik yoshida esa mos ketma-ketlikda $11,6 \times 10^{12}/l$, $12,2 \times 10^{12}/l$ hamda $12,1 \times 10^{12}/l$ ni tashkil etdi. Ushbu holat zich va nozik konstitutsiya tipidagi echkilarda ham qayd etildi.

3-jadval

Turli yosh va konstitutsiya tipidagi echkilar qonining morfologik ko'rsatkichlari, n=5

Ko'rsatkichlar	Yoshi, oy	Me'yor	Konstitutsiya tipi, $X \pm S_x$		
			Mustahkam	Zich	Nozik
Eritrotsit, $10^{12}/l$	8	8-18	$11,4 \pm 0,21$	$11,2 \pm 0,29$	$11,3 \pm 0,29$
	12		$11,6 \pm 0,28$	$11,7 \pm 0,33$	$11,5 \pm 0,29$
	18		$12,2 \pm 0,26$	$12,1 \pm 0,24$	$11,9 \pm 0,30$
	24		$12,1 \pm 0,33$	$11,8 \pm 0,30$	$11,4 \pm 0,26$
Leykotsit, $10^9/l$	8	5-13	$9,6 \pm 0,32$	$9,8 \pm 0,45$	$9,2 \pm 0,48$
	12		$9,8 \pm 0,37$	$9,9 \pm 0,37$	$9,5 \pm 0,41$
	18		$9,7 \pm 0,40$	$9,4 \pm 0,38$	$9,6 \pm 0,44$
	24		$9,3 \pm 0,34$	$9,5 \pm 0,38$	$9,4 \pm 0,40$
Gemoglobin, g/l	8	79-121	$113,2 \pm 2,03$	$112,2 \pm 1,77$	$112,6 \pm 2,25$
	12		$114,2 \pm 2,52$	$114,8 \pm 1,69$	$110,4 \pm 2,42$
	18		$115,2 \pm 1,77$	$115,6 \pm 1,75$	$113,6 \pm 2,23$
	24		$109,6 \pm 2,11$	$108,2 \pm 2,37$	$110,2 \pm 2,23$
Gematakrit, %	8	22-38	$32,3 \pm 0,65$	$32,2 \pm 0,64$	$32,2 \pm 0,64$
	12		$32,4 \pm 0,68$	$32,4 \pm 0,75$	$32,3 \pm 0,76$
	18		$33,3 \pm 0,62$	$33,2 \pm 0,61$	$32,8 \pm 0,71$
	24		$32,1 \pm 0,74$	$31,7 \pm 0,95$	$31,5 \pm 0,72$

Leykotsitlarning ko'rsatkichi bo'yicha ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yosh davrlari bo'yicha ham leykotsitlar miqdori u yoki bu ma'lum darajada o'zgarib turadi. Eritrotsitlardan farqli ravishda leykotsitlarning miqdori dastlabki davrlarda nisbatan yuqori bo'ldi. Jumladan, mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilarning 8 oylik yoshida bu ko'rsatkich o'rtacha $9,6 \times 10^9/l$ ga to'g'ri kelgan bo'lsa, 12 oylik yoshida esa $9,8 \times 10^9/l$ ni tashkil etdi. Keyingi 18 va 24 oylik yoshda bo'lsa mos ketma-ketlikda $9,7 \times 10^9/l$ va $9,3 \times 10^9/l$ ni tashkil etdi. Zich konstitutsiya tipidagi echkilar ko'rsatkichi 8 oylik yoshida $9,8 \times 10^9/l$, 12 oylikda $9,9 \times 10^9/l$ ni tashkil etib, 18 va 24 oylik yoshida leykotsitlarning biroz kamayganligi kuzatildi ($9,4 \times 10^9/l$ va $9,5 \times 10^9/l$). Nozik tipdagi echkilarning leykotsitar ko'rsatkichlari mustahkam va zich tipga nisbatan ortib borish dinamikasi biroz o'zgacharoq bo'ldi. Xususan, 8; 12; 18 oylik yosh davrlari bo'yicha $9,2 \times 10^9/l$; $9,5 \times 10^9/l$ va $9,6 \times 10^9/l$ ni tashkil etib oshib bordi, ikki yoshli davrga biroz pastlab $9,4 \times 10^9/l$ ni tashkil etdi.

Echkilarning gemoglobin ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yosh davrlari bo'yicha mazkur ko'rsatkich o'zgaradi. Jumladan, mustahkam konstitutsiya tipidagi 8 oylik echkilarda bu ko'rsatkich o'rtacha $113,2$ g/l ni tashkil etgan bo'lsa, 12 va 18 oylik yoshida esa mos ravishda $114,2$ g/l va $115,2$ g/l ni tashkil etdi. Nozik tipdagi echkilarning gemoglobin ko'rsatkichi

dinamikasida noturg'un o'zgarish tendensiyasi kuzatildi. Gemoglobin ko'rsatkichi bo'yicha mustahkam va zich konstitutsiya tipidagi echkilar nozik tipdan biroz ustunlik qildi.

Tajriba guruhidagi echkilarning yosh davrlari bo'yicha olingan gematokrit ulushi ko'rsatkichrining o'zgarishi huddi qizil qon tanachilari dinamikasi singari kechdi. Chunki gematokrit ulushi bevosida eritrotsitlar miqdori bilan belgilanadi. Gematokrit ko'rsatkichining 24 oylik yosh davridagi guruhlarda pasayishi kuzatildi. Bu holat bizning fikrimizcha qon namunasi echkilar bolalagandan so'ng olinganligi bilan bog'liq. Umuman olganda gematologik ko'rsatkichlar bo'yicha olingan natijalar, echkilar uchun fiziologik me'yor chegarasida bo'lganligi aniqlandi.

Qonning morfologik tarkibi organizmning muhim hayotiy jarayonlarni me'yorda kechishini ta'minlaydi. Zaanen zotli echkilardan tug'ilgan uloqlarning yangi ekologik sharoitga moslashish jarayonida yangi tug'ilgandagi va dastlabki sut emish davrida gematologik ko'rsatkislarning qanday o'zgarishini bilish muhim sanaladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Uloqlar qonining morfologik ko'rsatkichlari, n=5

Ko'rsatkichlar	Yoshi, kun ($\bar{X} \pm S_x$)		
	1	15	30
Eritrotsit, $10^{12}/l$	10,1±0,56	7,8±0,34	8,1±0,31
Leykotsit, $10^9/l$	8,3±0,27	7,9±0,25	8,6±0,29
Gemoglobin, g/l	103,2±3,24	76,6±2,79	80,6±3,06
Gematokrit, %	29,6±1,32	28,2±1,24	28,5±1,2

Uloqlar hayotining dastlabki kunida eritrotsit ko'rsatkichi $10,1 \pm 0,56 \times 10^{12}/l$ ni tashkil etib, 15 kunligida bir kunlik yoshga nisbatan $2,3 \times 10^{12}/l$ ($P < 0,01$) ga kamayganligi, bir oylik yoshida o'n besh kunlik yoshga nisbatan $0,3 \times 10^{12}/l$ ($P > 0,05$) ga kamayganligi kuzatildi. Bir kunlik yoshda leykotsilarning miqdori $8,3 \pm 0,27 \times 10^9/l$ ni tashkil etib, o'n besh kunlik yoshida $0,4 \times 10^9/l$ ($P > 0,05$) ga pasayishi, bir oylik yoshda esa $0,7 \times 10^9/l$ ($P > 0,05$) ga oshganligi aniqlandi. Gemoglobin ko'rsatkichi bir kunlik uloqlarda $103,2 \pm 3,48$ g/l ni tashkil etgan bo'lsa, o'n besh kunlik yoshda $26,6 \pm 4,46$ g/l ($P < 0,01$) pasayganligi, bir oylik yoshda ikki haftalik yoshga nisbatan 4 g/l ($P > 0,05$) ga biroz yuqorilagini kuzatildi. Bir oylik yoshdagi bir kunlik yoshga nisbatan $22,6 \pm 4,43$ g/l ($P < 0,01$) kam bo'lganligini ko'rish mumkin. Gematokrit bo'yicha olingan ko'rsatkichlar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlanmagan bo'lsada, tug'ilganda yuqori ko'rsatkichni qayd qilgan.

Dissertasiyaning "Echkilarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari" deb nomlangan beshinchi bobida tajribadagi echkilarni oziqlantirish va asrash sharoiti, birinchi tug'imdagi zaanen zotli echkilarning serpushtligi, sut mahsuldorligi, sutining kimyoviy tarkibi hamda yelinining morfologik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Tajribadagi echkilarga ilmiy manbalardagi me'yor ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda ratsion tuzildi. Laktatsiya davrida arpa, bug'doy, paxta kunjarasi,

bug‘doy kepagi, guruch sechka kabi konsentrat oziqalar; shirali ozuqalardan makkajo‘xori silosi; dag‘al ozuqalarndan beda pichani, shuningdek yoz faslida beda o‘ti va yontoq pichani bilan oziqlantirildi.

Kunlik beriladigan konsentrat ozuqalar uch qismga bo‘lib: bir qismi ertalab, bir qismi sut sog‘ish paytida va qolgan qismi kechqurun berildi. Bug‘doy, makkajo‘xori, usak sechkasi maydalagichdan o‘tkazilib, yorma holida berildi. Silos bilan ertalab, pichan bilan esa kechqurun oziqlantirildi (5-jadval).

Oziqlantirish jarayonida konsentrat ozuqalarning jami miqdori 253,8 kg ni tashkil etib, jami ozuqaning 17,93 foizini tashkil etdi. Almashinuv energiyasi esa 2618,41 Mj ni tashkil etib, jami energiyaning 43,75 foiziga to‘g‘ri keldi.

5-jadval

Laktatsiya davri bo‘yicha bir bosh echkiga sarflangan ozuqalar miqdori

Ozuqa turi	Miqdori, kg	Alm.ener, Mj	EOB	Quruq modda, kg	Hazm. protein, kg
Arpa	32,8	367,36	36,74	27,88	2,79
Bug‘doy	17,2	212,94	21,29	14,62	1,82
Pax.kun	50	491,0	49,10	45,0	15,95
Bug‘.kepagi	65	611,65	61,17	55,25	6,31
Mak.jo‘xori	32,8	453,30	45,33	27,88	2,39
Guruch sechka	56	482,16	48,22	47,60	4,26
Beda pichani	86	597,7	59,77	71,38	8,69
Mak.silos	690	1731,9	173,19	172,5	9,66
Beda ko‘k o‘ti	310	542,5	54,25	77,5	11,78
Yontoq	76	494,12	49,41	66,12	3,12
Jami	1415,8	5984,63	598,5	577	66,77

Ratsion tarkibidagi ozuqalar miqdorining asosiy qismini shirali va ko‘k ozuqalar tashkil etib, makkajo‘xori va beda o‘ti miqdori mos holda 690 kg va 310 kg ni tashkil etdi. Almashinuv energiyasi bo‘yicha esa 1731,9 va 542,5 Mj ni tashkil etib, har ikkala ozuqa turi jami energiyaning 38,0 foiziga to‘g‘ri keldi. Dag‘al ozuqalardan beda va yontoq pichanining jami miqdori 162 kg tashkil etib, almashinuv energiyasining esa 18,25 foiziga mos keldi. Jami sarflangan ozuqa tarkibida umumiy energetik oziqa birligi 598,5 ni tashkil etib, o‘z tarkibida 66,77 kg hazmlanuvchi proteinni saqladi. Umumiy hisobda 1 EOB da 111,5 g hazmlanuvchi protein to‘g‘ri keldi. Quruq moddaga nisbatan hazmlanuvchi proteinning ulushi 11,57 foizni tashkil etdi.

Tadqiqotlarda turli konstitutsiya tipidagi echkilarning yetti oy davomidagi laktatsiya davridagi sut mahsuldorligi o‘rganildi (6-jadval).

Laktatsiya davrining birinchi oyida mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilardan o‘rtacha 53,6 kg sut sog‘ib olingan bo‘lib, zich va nozik konstitutsiya tipidagi tengdoshlarida mos holda 54,9 kg va 53,9 kg ni tashkil etdi. Laktatsiya davrining ikkinchi oyida har uchala guruhdagi echkilarda sut miqdori ko‘tarilgani kuzatilib, birinchi laktatsiya oyiga nisbatan mustahkam, zich va nozik konstitutsiya tiplarida mos ketma-ketlikda 10,6; 12,0 va 15,0 kg ga ($P < 0,01$) ortib, 64,2; 66,9 va

68,9 kg ko'rsatkichi qayd etildi. Ikkinchi laktatsiya oyida nisbatan yuqori ko'rsatkich nozik konstitutsiya tipida kuzatilib, mustahkam va zich tipdagi tengdoshlaridan 4,7 hamda 2,0 kg ($P>0,05$) ga ortiq bo'ldi. Laktatsiya davrining to'rtinchi oyida har uchala guruhdagi echkilarda sut miqdori eng yuqori ko'rsatkich kuzatildi. To'rtinchi laktatsiya oyida sut hajmi bo'yicha ustunlik mustahkam konstitutsiya tipidagi echkilar guruhida kuzatilib, zich va nozik konstitutsiya tipidagi tengdoshlaridan mos holda 4,0 ($P>0,05$) va 9,9 kg ($P<0,05$) ga ustunlik qildi.

6-jadval

Echkilarning laktatsiya oylari bo'yicha sut mahsuldorligi, kg

Laktatsiya oylari	Konstitutsiya tipi					
	Mustahkam		Zich		Nozik	
	$X \pm S_x$	$C_v \%$	$X \pm S_x$	$C_v \%$	$X \pm S_x$	$C_v \%$
1	53,6±1,42	8,40	54,9±1,49	8,61	53,9±1,39	8,18
2	64,2±1,69	8,30	66,9±1,81	8,56	68,9±1,80	8,28
3	107,4±2,67	7,87	121,6±2,97*	7,72	114,6±2,96	8,16
4	129,5±2,56*	6,25	125,5±2,81	7,09	119,6±2,72	7,19
5	100,8±2,48	7,78	108,6±2,55	7,43	106,4±2,67	7,94
6	77,9±2,00	8,13	86,8±2,17**	7,91	83,4±2,03	7,71
7	69,3±1,87	8,52	73,5±2,01	8,66	61,2±1,40	7,26
Jami	602,7		637,8		608,0	

Izoh: *- $P<0,05$; ** - $P<0,01$

Laktatsiya davrining yettinchi so'nggi oyida sut hajmi oltinchi oyga nisbatan mustahkam, zich va nozik konstitutsiya tiplari bo'yicha mos ketma-ketlikda 8,6; 13,3 va 22,2 ($P<0,01$) kg ga kam sut sog'ib olindi. Mazkur oyda ham sut miqdori bo'yicha ustunlik zich konstitutsiya tipidagi echkilar guruhida kuzatilib, mustahkam va nozik konstitutsiya tipidagi tengdoshlaridan mos holda 4,2 ($P>0,05$) va 12,3 ($P<0,01$) kg ga ustunlik qildi.

Tadqiqotlar davomida echkilar sutining kimyoviy tarkibi aniqlandi va quyidagi 7-jadvalda keltirildi.

7-jadval

Laktatsiya davri davomida sutning kimyoviy tarkibi, %

Laktatsiya oylari	Konstitutsiya tipi								
	Mustahkam			Zich			Nozik		
	Oqsil	Yog'	QYoSQ	Oqsil	Yog'	QYoSQ	Oqsil	Yog'	QYoSQ
1	3,34	3,85	8,96	3,32	3,82	8,95	3,32	3,91	8,91
2	3,29	3,76	8,87	3,27	3,74	8,85	3,26	3,86	8,82
3	3,25	3,71	8,14	3,22	3,72	8,08	3,23	3,82	8,11
4	3,19	3,62	7,92	3,21	3,68	7,94	3,22	3,76	8,02
5	3,26	3,77	9,09	3,25	3,73	8,93	3,29	3,89	8,85
6	3,37	3,93	9,35	3,33	3,86	9,17	3,34	4,08	9,03
7	3,43	4,13	9,46	3,39	4,06	9,29	3,51	4,22	9,41
O'rtacha	3,30	3,82	8,83	3,28	3,80	8,74	3,31	3,93	8,74

Izoh: *- $P<0,05$

Jumladan, eng yuqori laktatsiya sog‘imi yuqorida ta’kidlanganidek to‘rtinchi oyda qayd etilgan bo‘lsa, quruq modda tarkibiy qismlari ulushi esa mazkur oyda eng quyi ko‘rsatkichga to‘g‘ri keldi. Xususan mazkur oyda sutdagi oqsil, yog‘ va QYoSQ ulushi mos holda mustahkam tipda 3,19%, 3,62% va 7,92% ni; zich tipda 3,21%, 3,68% va 7,94% ni; nozik tipda 3,22%, 3,76% va 8,02% ni tashkil etdi.

Laktatsiya davomida sut miqdorning kamayib borishi bilan quruq modda va uning tarkibiy qismlari ulushi ham ortib bordi. Shu nuqtai nazardan eng yuqori ko‘rsatkichlar laktatsiyaning yettinchi oyligida kuzatilib, sutdagi oqsil, yog‘ va QYoSQ ulushi mos holda mustahkam tipda 3,43%, 4,13% va 9,46% ni; zich tipda 3,39%, 4,06% va 9,29% ni; nozik tipda 3,51%, 4,22% va 9,41% ni tashkil etdi.

Butun laktatsiya davomida quruq modda tarkibidagi oqsil, yog‘ va QYoSQ ning ulushi o‘rtacha ko‘rsatkichi mos holda mustahkam tipda 3,30%, 3,82% va 8,83% ni; zich tipda 3,28%, 3,80% va 8,74% ni; nozik tipda esa 3,31%, 3,93% va 8,74% ni tashkil etdi. Quruq modda tarkibidagi oqsil va yog‘ ulushi bo‘yicha nozik tipdagi echkilar mustahkam va zich tipdagi echkilardan biroz ustunlik qilgan ($P>0,05$). Quruq modda tarkibidagi QYoSQ ulushi bo‘yicha esa mustahkam tipdagi echkilar suti har ikkala tipdan ustunlik qildi, ammo bu tafovut ham ishonchli farqlanishga ega bo‘lmadi ($P>0,05$).

Tadqiqotlarda echkilar yelinining morfofiziologik ko‘rsatkichlari sut sog‘ib olinishidan oldin va sut sog‘ib olingandan so‘ng o‘lchandi (8-jadval).

8-jadval

Echkilar yelinining morfologik ko‘rsatkichlari, sm

Holati	Konstitutsiya tipi		
	Mustahkam	Zich	Nozik
Yelin aylanasi			
Sog‘ishdan oldin	53,80±0,87	55,33±0,94*	51,43±0,95
Sog‘ishdan so‘ng	44,23±0,76*	43,90±0,79	41,52±0,78
Yelin uzunligi			
Sog‘ishdan oldin	23,40±0,48	23,70±0,47	22,20±0,44
Sog‘ishdan so‘ng	20,10±0,43	19,70±0,42	18,60±0,37
Elin chuqurligi			
Sog‘ishdan oldin	21,73±0,38	20,76±0,41	21,41±0,39
Sog‘ishdan so‘ng	18,31±0,37	17,86±0,38	18,26±0,35
Chap so‘rg‘ich uzunligi			
Sog‘ishdan oldin	6,84±0,16	6,52±0,19	6,38±0,19
Sog‘ishdan so‘ng	7,24±0,19*	6,73±0,21	6,67±0,19
O‘ng so‘rg‘ich uzunligi			
Sog‘ishdan oldin	6,67±0,17*	6,23±0,19	6,09±0,11
Sog‘ishdan so‘ng	7,02±0,18*	6,45±0,21	6,45±0,20
So‘rg‘ichlar oralig‘i			
Sog‘ishdan oldin	13,19±0,38	13,81±0,46	14,21±0,43
Sog‘ishdan so‘ng	9,88±0,27	10,63±0,33	11,08±0,29**

Izoh: *- $P<0,05$; ** - $P<0,01$

Yelinning aylanasi mustahkam tipdagi echkilarda sog'ishdan oldin 53,80 sm ni tashkil etgan. Zich va nozik tipdagi echkilarda esa mos holda 55,33 va 51,43 sm ga to'g'ri keldi. Yuqori ko'rsatkich zich tipdagi echkilarda kuzatilib, mustahkam tipga nisbatan 1,53 sm ($P>0,05$) yoki 2,84 foizga; nozik tipga nisbatan esa 3,90 sm ($P<0,05$) yoki 7,58 foizga ustunlik qildi. Sog'ishdan keyingi ko'rsatkichlar mustahkam, zich va nozik tipdagi echkilarda mos holda 44,23; 43,90 va 41,52 sm ni tashkil etdi. Mustahkam tipdagi echkilar zich va nozik tipdagi tenqurlaridan 0,33 sm ($P>0,05$) yoki 0,75 foizga va 2,71 sm ($P<0,05$) yoki 6,53 foizga ustun bo'ldi. Sut sog'ib olingandan so'ng yelin aylanasi ko'rsatkichi mustahkam tipdagi echkilarda 9,57 sm yoki 1,21 martaga; zich tipdagi echkilarda bo'lsa 11,43 sm yoki 1,26 martaga; nozik tipdagi echkilarda esa 9,91 sm yoki 1,24 martaga qisqarganligi aniqlandi.

Yelin uzunligi mustahkam tipdagi echkilarda sog'ishdan oldin 23,40 sm ni, zich tipda 23,70 sm va nozik tipda esa 22,20 sm ga to'g'ri keldi. Mazkur yuqori ko'rsatkich zich tipdagi echkilar guruhiga to'g'ri kelgan. Yelin uzunligining sog'imdan keyin ko'rsatkichi mustahkam tipda yuqori bo'lgan. Sut sog'ib olingandan so'ng yelin uzunligi ko'rsatkichi mustahkam tipdagi echkilarda 3,30 sm yoki 1,16 martaga; zich tipdagi echkilarda bo'lsa 4,0 sm yoki 1,20 martaga; nozik tipdagi echkilarda esa 3,60 sm yoki 1,19 martaga qisqarganligi ko'rsatdi.

Sog'imdan oldingi yelin chuqurligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich mustahkam tipdagi echkilar guruhida kuzatilgan. Yelin chuqurligi sog'imdan keyingi o'rtacha ko'rsatkichi mustahkam, zich va nozik tipdagi echkilarda mos holda 18,31; 17,86 va 18,26 sm ni tashkil etgan. Yelin chuqurligining sut sog'ib olinganidan keyingi holati mustahkam tipdagi echkilarda 3,42 sm yoki 1,19 martaga; zich tipdagi echkilarda bo'lsa 2,90 sm yoki 1,16 martaga; nozik tipdagi echkilarda esa 3,15 sm yoki 1,17 martaga torayganligi aniqlandi.

Laktatsiya davri davomida mustahkam zich va nozik konstitutsiya tipidagi echkilar bir xil saqlash va oziqlantirish sharoitida parvarishlanganda ham sut mahsuldorligi tan narxi bo'yicha guruhlar o'rtasiga tafovut kuzatildi (2943,7; 2963,3; 3028,7 ming so'm). Realizatsiyaga chiqarilgan sut miqdori mos ravishda 570,0; 598,0; 578,0 kg ni tashkil etgan. Guruhlarda olingan umumiy daromad mos holda 4560,0; 4788,8; 4629,6 ming so'mni, rentabellik darajasi 54,9%; 61,6% va 52,9% ni tashkil qildi.

XULOSALAR

Yangi ekologik sharoitda zaanen zotli echkilarning moslashuv xossalari va mahsuldorlik xususiyatlarini aniqlash va olingan ma'lumotlarni tahlil qilib o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Echkilarning eksteryer ko'rsatkichlari konstitutsional tipga bog'liq bo'lib, turli yosh davrlarida tana o'lchamlari bo'yicha ustunlik mustahkam, zich konstitutsiya tipida oraliq va nozik konstitutsiya tipidagi echkilarda esa quyida tana ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

2. Mustahkam tipdagi echkilar 24 oylik yoshida zich va nozik tipga nisbatan yag'rin balandligi 1,4 ($P>0,05$) va 4,7 sm ($P<0,01$) ga, gavdaning qiya uzunligi 5,7

va 6,5 sm ($P<0,001$) ga, ko'krak chuqurligi 1,7 ($P<0,05$) va 3,4 sm ($P<0,001$) ga, ko'krak kengligi 1,6 ($P<0,01$) va 2,9 sm ($P<0,001$) ga, ko'krak aylanasi 8,4 va 6,6 sm ($P<0,001$) ga ortiq bo'lishini ko'rsatdi.

3. O'sish koeffitsientlari yosh davrlari bo'yicha yag'rin balandligi, gavda qiya uzunligi, dumg'aza balandligi, ko'krak va kaft aylanasi kabi tana qismlarida noturg'un; ko'krak chuqurligi, ko'krak kengligi singari tana qismlarida esa turg'un kamayishi kuzatildi.

4. Tirik vazn dinamikasini bo'yicha mustahkam konstitutsional tip echkilarida kuzatilib, zich va nozik tipga nisbatan: 8 oylik yoshida 1,1 kg ($P>0,05$) va 1,9 kg ($P<0,01$) ga; 12 oylik yoshida 1,5 kg ($P>0,05$) va 2,7 kg ($P<0,01$) ga; 18 oylik yoshda 1,1 kg ($P>0,05$) va 2,8 kg ($P<0,01$) ga; 24 oylik yoshdagi esa 1,6 kg ($P>0,05$) va 3,1 kg ($P<0,01$) kg ga ustunlik qildi.

5. Echkilarning klinik ko'rsatkichlari yosh kesimi bo'yicha pastlashishi kuzatildi. Yangi ekologik sharoitda voyaga yetgan barcha konstitutsiya tipidagi echkilar klinik ko'rsatkichlari fiziologik me'yor doirasida bo'lib, guruhlar o'rtasida ishonchli farqlanish kuzatilmadi.

6. Yosh kesimi bo'yicha qonning morfologik tarkibida farqlanish kuzatilib, yosh kattalashishi bilan ko'rsatkichlarning ortishi kuzatildi. Mustahkam va zich tipdagi echkilar ko'rsatkichlari nozik tipdan biroz ustunlik qilishini kuzatilsada, tiplar bo'yicha ishonchli farq aniqlanmadi.

7. Uloqlarning 1-15 kunlik yosh oralig'ida eritrosit va gemoglobin ko'rsatkichlari bo'yicha keskin o'zgarish yuz berib, eritrotsitlarning miqdori $2,3 \times 10^{12}/l$ ($P<0,01$), yoki 22,8%ga va $26,6 \pm 4,46$ g/l ($P<0,01$), yoki 25,78%ga kamayishi (anemiya) kuzatildi.

8. Yangi ekologik sharoitda qochirilgan echkilarning barchasi urug'lanib, bola tashlash holati kuzatilmadi. Mustahkam, zich va nozik tip bo'yicha shartli serpushtlik darajasi mos holda 120%;140%;120% ni tashkil etdi.

9. Laktatsiya davrida zich konstitutsional tipdagi echkilar sut mahsuldorligi (637,8 kg) yuqori bo'lib, mustahkam (602,7 kg) va nozik (608,0 kg) tipdan mos holda 35,1 kg yoki 5,82% va 29,8 kg yoki 4,90% ga ustunlik qildi.

10. Oylik yuqori sut mahsuldorligi laktatsiyaning to'rtinchi oyida kuzatilib, mustahkam tip, zich va nozik tipdagi tengqurlaridan mos holda 4,0 ($P>0,05$) va ($P<0,05$) 9,9 kg ga yuqori bo'ldi.

11. Nozik konstitutsiya tipidagi echkilar sutning kimyoviy tarkibi bo'yicha ustunlik qilib, laktatsiyaning 4 oyida yog' ulushi bo'yicha mustahkam tipdan 0,14% ($P<0,05$), laktatsiyaning 7 oyida oqsil ulushi zich tipdan 0,12% ($P<0,05$) ustunligi qayd etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.12.2019. Qx.75.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

АНСАТБАЕВ ПАРАХАТ АЗАТБАЕВИЧ

**АДАПТИВНЫЕ СВОЙСТВА И ПРОДУКТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЗААНЕНСКОЙ ПОРОДЫ КОЗ В НОВЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
УСЛОВИЯХ**

06.02.03 – Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.2.PhD/Qx769.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.uzkarakul.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Ажиниязов Бахитбай Кенесбаевич**
доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты: **Турганбаев Рузимбай Уразбаевич**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Хусеинова Майсара Абдувафоевна
доктор философии по сельскохозяйственным наукам

Ведущая организация: **Научно-исследовательский институт животноводства и птицеводства**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __ часов на заседании Научного совета PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 по присуждению ученой степени доктора философии при научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь (Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека 47. Научно-исследовательский институт каракулеводства и экологии пустынь, тел: (99866) 233-32-79, факс (998660 2333481; e-mail: uzkarakul30@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь (зарегистрировано под номером № 235). Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека, 47. Административное здание института, 1-этаж, тел: (99866) 2333279; факс: (99866) 2333481

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ «__» _____ 2023 года)

Э.С.Шаптак
Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.с-х.н. (DSc), профессор

З.С.Кличев
Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёной степени,
д.ф.с-х.н. (PhD), старший научный сотрудник

Д.Х.Холмирзаев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёной степени, д.с-х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире существует более 250 пород коз молочного, шерстного, пухового, мясного и других направлений продуктивности. Своеобразной особенностью козоводства является то, что коз можно разводить в пустынных, полупустынных, горных и других экологически неблагоприятных районах, в которых разведение других сельскохозяйственных животных весьма затруднительно. В таких суровых природно-климатических зонах проживает более одного миллиарда человек. По состоянию на 2018 год поголовье коз в мире составляет 1045,9 млн. голов, и их разводят в 197 странах мира. Поголовье коз в мире распределено неравномерно, 52,5 процента из них приходится на Азиатский континент¹. Поскольку в последние годы во многих странах мира наблюдается дефицит продуктов питания получаемых от козоводческой отрасли, повышение молочной и мясной продуктивности козоводства является актуальной проблемой.

Среди стран СНГ наибольшее поголовье коз приходится на долю Узбекистана (3,6 млн), Казахстана (2,3 млн), Туркменистана (2,3 млн) и России (1,96 млн)². В промышленных масштабах используются различные специализированные породы коз молочного направления. Взрослые и здоровые местные козы имеют в среднем живую массу 38-45 кг и за 6-8 месячный лактационный период дают 250-400 кг молока. В России разводят коз мурсиано-гранадинской, зааненской, альпийской, нубийской пород. Сегодня особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на повышение молочной продуктивности коз.

В последние годы в нашу страну завезены породы коз различного направления продуктивности, как зааненская, тогенбургская, альпийская, ангорская, гулобийская, англо-нубийская, мурсиа-гранадинская, бинтауская, бурская, камори, проводятся научно-исследовательские работы по их акклиматизации. В нашей республике реализуются меры, направленные на удовлетворение потребностей населения в продуктах питания, в том числе в продукции животноводства. В частности, в новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие важные задачи, как «...Цель-32: Расширение кормовой базы животноводства и увеличение объемов производства продукции животноводства в 1,5-2 раза»³.

